

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

MAHAMMADIYEV ZOHID NASRILLAYEVICH

**SAMARQAND VILOYATI SUN'IY SUV HAVZALARIDAGI KARPSIMON
BALIQLAR SESTODALARINING BIOLOGIYASI, TARQALISHI VA
ULARGA EKOLOGIK OMILLARNING TA'SIRI**

03.00.06 - Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mahammadiyev Zohid Nasrillayevich

Samarqand viloyati sun'iy suv havzalaridagi karpsimon baliqlar sestodalarining biologiyasi, tarqalishi va ularga ekologik omillarning ta'siri.... 3

Махаммадиев Зоҳид Насриллаевич

Биология, распространение и влияние экологических факторов на цестод карпообразных рыб в искусственных водоёмах Самаркандской области..... 23

Makhammadiyev Zokhid Nasrillayevich

Biology, distribution of carp fish sestodes in artificial reservoirs of Samarkand region and the influence of environmental factors on them..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

MAHAMMADIYEV ZOHID NASRILLAYEVICH

**SAMARQAND VILOYATI SUN'IY SUV HAVZALARIDAGI KARPSIMON
BALIQLAR SESTODALARINING BIOLOGIYASI, TARQALISHI VA
ULARGA EKOLOGIK OMILLARNING TA'SIRI**

03.00.06 - Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B822 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Daminov Asadullo Suvanovich
Veterinariya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Akramova Firuza Djalaladdinovna
Biologiya fanlari doktori, professor

Kochanov Dauletbay Erejepovich
biologiya fanlari falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «20» *iyun* kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abidov ko'chasi, 1 uy. Universitet majlislar zali. Tel: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№139-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abidov ko'chasi, 1 uy, Tel: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «05» *iyun* kuni tarqatildi.
(2023 yil «05» *iyun* dagi №3 -raqamli reestr bayonnomasi)



M.A.Jumanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, b.f.d., professor

M.K.Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi b.f.d., dotsent

Ya.I.Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida baliq mahsulotlarini yetishtirish va aholiga yetkazib berish, baliqchilik xo'jaligining muhim ustivor vazifalaridan biri sanaladi. Bu o'rinda, yetishtirilayotgan mahsulotlarga parazit chuvalchanglar keltirib chiqaradigan gelmintoz kasalliklarning salbiy ta'siri ortib borayotganligi, ularga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish lozimligidan dalolat beradi. Ayniqsa sestodalar tomonidan chaqiriladigan kasalliklar ta'biy va sun'iy suv havzalari sharoitlarida baliqlarni, shu jumladan, karpsimon baliqlarni ko'paytirish, ularning mahsuldorligi va sifatini oshirishda, baliq turlarini iqlimlashtirishda katta to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Shunga ko'ra, karpsimon baliqlar organizmida parazitlik qiluvchi sestodalarning tur tarkibini aniqlash, bioekologiyasini asoslash, parazit chuvalchanglar keltirib chiqaradigan gelmintoz kasalliklarning baliqchilik tarmog'i rivojlanishi va mahsuldorligiga salbiy ta'sirini baholash, ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda baliqchilik sanoatida suv havzasi tabiiy ozuqa bazasi organizmlaridan oqilona foydalanishga, suv havzalarida baliq zaxirasini ko'paytirish va sifatini oshirishga, suv havzalarining meliorativ holatini yaxshilashga hamda baliq parazitlarining oraliq xo'jayinlari populyatsiyalari miqdorining oshishini e'tiborga olishga qaratilgan parazitologik nazoratga katta e'tibor berilmoqda. Sestodalarning turli mintaqalar bo'yicha faunistik tarkibi, biologiyasi, ekologiyasi, biotsenotik aloqalari, epizootologik va epidemiologik ahamiyatini baholash va ularga qarshi zamonaviy kurashning samarador chora-tadbirlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan ishlar jadallashtirilmoqda. Takidlash lozimki, tabiiy va suniy suv havzalari baliqlarida uchraydigan sestodalar tur tarkibini o'rganish, ayirim keng tarqalgan turlarining bioekologik xususiyatlari, baliq organizmida yashashga moslanishlari kabi masalalarni tahlil qilish va ularga qarshi uyg'unlashgan kurash usullarini takomillashtirishga oid tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi. Bu borada, jumladan, sestodalarning bioxilma xilligini aniqlash, baliqchilik xo'jaliklariga sestodozlarning ta'sirini baholash, biologiyasi va eng jiddiy turlarining tarqalishiga ekologik omillarning ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda, baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, sohaga intensiv texnologiyalarni keng joriy etish orqali aholini baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirishga katta e'tibor qaratildi. Bu borada, jumladan, baliqchilikda suv havzalarining meliorativ holati yaxshilanadi, baliqlar sun'iy urchitildi, baliqlar tuxum qo'yadigan va yosh baliqchalar o'sadigan joylarda tegishli sharoitlar yaratildi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida¹ "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

karpsimon baliqlarda parazitlik qiluvchi sestodalarini aniqlash, ularni sistematik tahlil qilish, suv havzalari kesimida sestodalar populyatsiyalari miqdorini boshqarish va ularga qarshi samarali kurash chora tadbirlarini ishlab chiqish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi PQ-2939-son «Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentyabrdagi 719-son «Baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2017 yil 18 oktyabrdagi 845-son «Chorvachilik va baliqchilik tarmog'i ozuqa bazasini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 apreldagi PQ-3657-son «Baliqchilik sohasini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustivor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Baliqlar sestodalarining faunasi, taksonomiyasi, parazitlar kasalliklarining tarqalishi va ularga qarshi kurash choralari bo'yicha tadqiqotlar xorijnink etakchi olimlari R.Poulin, E.T.Valtonen (2001), N.M.Alcantara, M.T.Dias (2015), Muhammad Moosa Abro (2019), va boshqalar tomonidan olib borilgan. MDH davlatlarida sestodalarining tur tarkibi, tarqalish xususiyatlari, keltirib chiqaradigan kasalliklari, ularni oldini olish va ularga qarshi uyg'unlashgan kurash choralari to'g'risida ma'lumotlar A.N.Petuxov, A.Ye.Joxov (2003), M.V.Kiryushina (2004), N.M.Molodjnikova, A.Ye.Joxov (2007), K.S.Akischeva va boshqalar (2011) ishlarida aks ettirilgan.

O'zbekistonda baliqlar parazitofaunasi, tarqalishi, kasalliklari, qo'zg'atuvchilarining epizootologiyasi, ularni davolash va oldini olish chora-tadbirlariga oid tadqiqotlar S.O.Osmanov (1971), A.N.O'razbayev (1973), P.S.Haqberdiyev (2009), E.B.Shakarbayev (2017), F.E.Safarova (2017), A.S.Daminov (2019) va boshqalarning ilmiy ishlarida qayd etilgan.

Biroq, bu tadqiqotlar Respublikamizning, jumladan, Samarqand viloyati sun'iy suv havzalaridagi karpsimon baliqlar sestodozlari qo'zg'atuvchilarining taksonomiyasi, sistematikasi, biologiyasi, kasalliklar epizootologiyasi, tarqalishi va ularga ekologik omillarning ta'siri bo'yicha to'la ma'lumot bera olmaydi. Shu bois, Samarqand viloyati sun'iy suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar sestodalarining zamonaviy tur tarkibi, taksonomiyasi, biologiyasi, tarqalishi va ularga ekologik omillarning ta'siri o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand

davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 02-2019 «Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar kasalliklari» mavzusi (2019-2022) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyati sun‘iy suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar sestodalarining taksonomiyasi, tur tarkibi, bioekologik xususiyatlari, tarqalishi, kasalliklarining epizootologiyasi va ularni oldini olish chora-tadbirlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand viloyati baliqchilik xo‘jaliklari sun‘iy suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar sestodalarining taksonomiyasi va tur tarkibini aniqlash;

karpsimon baliqlarning sestodalar bilan zararlanishining invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligini aniqlash;

sun‘iy suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar gelmintofaunasini turlar kesimida qiyosiy tahlil qilish;

karpsimon baliqlar sestodalarining ayrim biologik xususiyatlari va ularning tarqalishiga bioekologik omillarning ta‘sirini asoslash;

karpsimon baliqlar sestodozlarining epizootologiyasi va ularga qarshi zamonaviy kurash usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘yekti: Samarqand viloyati sun‘iy suv havzalaridagi karpsimon baliqlar va ularning sestodalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti o‘rganilayotgan sun‘iy suv havzalaridagi karpsimon baliqlarlar sestodalarining faunasi, taksonomiyasi, tarqalishi, bioekologiyasi va ularga qarshi kurashishda biologik usullar, angelmintik preparatlar samaradorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ixtiologik, parazitologik, gelmintologik, gidrokimyoviy, gidrobiologik, ekologik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining baliqchilik xo‘jaliklari sun‘iy suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlarda sestodalarining 2 ta kenja sinf, 4 turkum, 5 oila va 7 avlodga mansub 9 turi aniqlangan, shundan, ilk bor shu hudud uchun *Silurotaenia siluri* Batch, 1786 turining sazan va kumush tovon (yovvoyi) baliqlarida dominat tur sifatida parazitlik qilishi qayd etilgan;

karpsimon baliqlarning sestodalar bilan zararlanishining invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligi ko‘rsatgichlari aniqlangan;

profilaktik maqsadida qo‘llanilgan antigelmintik preparatlarning parazitga nisbatan ko‘rsatadigan neyroparalitik, metabolik hamda mikrotubulyar ta‘sir xususiyatlari asoslangan;

karpsimon baliqlar gelmintlarining ayrim biologik xususiyatlari va ularning tarqalishiga suv havzasining tipi va ekologik omillarning ta‘siri ochib berilgan;

sun‘iy suv havzalaridagi epizootik holatga mos holda, eko-biologik tabiatdagi tadbirlar sifatida «Polikultura», «Sanitar ekologiya» va «Zanjirni uzish» usullarini yakka-yakka tartibda va birgalikda qo‘llashning karpsimon baliqlar sestodozlariga qarshi kurashishdagi qiyosiy samaradorligi asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olingan natijalar tahlili asosida Samarqand viloyatining sun'iy suv havzalarida karpsimon baliqlar sestodozlarining tarqalish holatini bashorat qilish imkoniyati yaratilgan;

karpsimon baliqlarning oldindan ma'lum va yangidan aniqlangan sestodalar bilan zararlanish darajasi va miqdor indeksleri asosida hududda dominant sestodoz qo'zg'atuvchilari sonini boshqarish usullari ishlab chiqilgan;

karpsimon baliqlar sestodozlariga qarshi kurashishning bio-ekologik usullari hamda angelmintik preparatlarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda zamonaviy tadqiqot usullarining qo'llanilganligi hamda ilmiy yondoshuvlar asosida olingan tajriba natijalarining nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, raqamli ma'lumotlarning zamonaviy statistik dasturlar asosida tahlil qilinganligi, olingan natijalarning yetakchi nashrlarda chop etilganligi, dissertatsiya tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Samarqand viloyatining sun'iy suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar sestodalarining taksonomiyasi va tur tarkibining aniqlanganligi, ularning faunistik tahlil qilinganligi, karpsimon baliqlar sestodalarining ayrim biologik xususiyatlari ochib berilganligi, sestodalarning alohida patogen turlariga epizootologik baho berilganligi hamda «polikultura», «sanitariya» va «zanjirni uzish» eko-biologik tadbirlarining karpsimon baliqlar organizmi va ularning sestodozlar bilan zararlanish darajasiga ta'sirining ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati karpsimon baliqlar sestodozlarining ekologo-epizootologik xususiyatlari asosida ularga qarshi epidemiologik asoslarini ishlab chiqish hamda sestodozlar tarqalishining oldini olishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyati sun'iy suv havzalaridagi karpsimon baliqlar sestodalarining biologiyasi, tarqalishi va ularga ekologik omillarning ta'siri yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

suv havzalari sharoitida Cyprinidae oilasiga mansub karpsimon baliqlar sestodalarning biologik xilma-xilligini aniqlash va epizootik ahamiyatga ega bo'lgan turlarning tarqalishiga ekologik omillarning ta'sirini asoslash hamda sestodozlarni oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasining 2022 yil 16 sentyabrdagi 01/18-2173-son ma'lumotnomasi). Natijada tabiiy va su'niy suv havzalaridagi baliq turlarini sestodoz kasalliklardan saqlab qolish va ularning ekologik holatini barqarorlashtirish imkonini bergan;

Samarqand viloyati suv havzalaridagi karpsimon baliqlar cestodalarining turlar tarkibi, tarqalish dinamikasi, kasallik qo'zg'atuvchilarining biologiyasi va unga ta'sir qiluvchi bio-ekologik omillarning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilib, baliq parazitlarini oldini olish va ularga qarshi kurash choralari bo'yicha ilmiy

asoslangan «Baliqlar sestodozlarining diagnostikasi, epizootologiyasi, davolash va profilaktika chora-tadbirlari» nomli tavsiyanoma va “Baliqlarni laboratoriya tekshirishlari” nomli uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqilib, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on suv omborining Nurobod tumani hududidagi 14-havzasi va Zarafshon daryosi hududida joylashgan “Otabek Do‘stov” hamda Oqdaryo tumanidagi “Ozodbek Ibragimov baliqlari” baliqchilik fermer xo‘jaliklari amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqolpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2022 yil 19-sentyabr 33/01-04-502-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu hududlardagi tabiiy va sun‘iy suv havzalari karpsimon baliqlar sestodozlarini tashxislash, monitoring qilish va invaziyalarga qarshi kurash orqali baliqlar mahsuldorligi va rentabelligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta tavsiyanoma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Karpsimon baliqlar gelmintlarini o‘rganishga doir adabiyotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi to‘rtta bo‘limdan iborat bo‘lib unda karpsimon baliqlar gelmintlarining sistematikasi, tarqalishi, sestodozlarining umumiy tavsifi, epizootologiyasi, baliq gelmintlarining rivojlanishi va sestodozlarining oldini olish chora tadbirlari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Baliqlar organizmida parazitlik qiluvchi gelmintlarning turli davlatlardagi xilma-xilligi, tarqalishi, epizootologik xususiyatlari, gelmintozlarning oldini olish chora tadbirlari va baliqchilik tarmog‘idagi ahamiyati to‘g‘risida ma‘lumotlar bayon qilingan. Jumladan, Respublikamizning ba‘zi suv havzalari baliqlari parazitofaunasi xilma-xilligining o‘zgarishini o‘rganish asosida parazitlarning tur tarkibi, zararlanishning invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligi aniqlangan,

shuningdek, suv sathining pasayishi, shoʻrlanishning ortishi va Orolboʻyi suv havzalari degradatsiyasi natijasida koʻpchilik parazitlarning tarqalish hududlarining qisqarganligi va ular xoʻjayinlari miqdorining kamayganligi tahlil qilingan. Shuningdek, Oʻzbekiston sharoitidagi karpsimon baliqlarda jami 49 tur gelmint topilganligi, ular 3 ta tip, 4 ta sinf, 15 ta turkum, 26 oila va 36 avlodga mansubligi, shulardan, gelmintlar faunasining 13 turini (26,5 %) sestodlar, 18 turini (36,7 %) trematodalar, 14 turini (28,6 %) nematodalar va 4 turini (8,2 %) akantotsefallar tashkil etishi koʻrastib berilgan.

Karpsimon baliqlardagi sestodozlar shuningdek, kavioz, filometroidoz va botriotsefalioz, difillobotrio, opistorxoz, ligulyoz kabi kasalliklarning tarqalishida suv havzalaridagi kislorod va vodorod sulfid gazlarining oʻrni, baliq gelmintozlariga tashhis qoʻyish usullari, baliqlarda uchraydigan kasalliklar koʻpincha antropogen omillarning tabiiy ekotizimlarga kuchli taʼsiri oqibatida roʻy berishi kabi maʼlumotlar bayon etilgan.

Baliq parazitlarning toʻgʻridan-toʻgʻri, yaʼni oraliq tashuvchilarsiz, yana boshqa turlarining esa rivojlanish jarayonida bitta (oraliq) yoki ikkita (tashuvchi oraliq va qoʻshimcha) tashuvchilar ishtirok etishi, qushlar va sikloplarning biotsenozdagi oʻrni, tuxum, pleroterokoid, koratsidiy bosqichlarning tavsifi kabi maʼlumotlar ham keng koʻlamda ochib berilgan.

«Baliq-parazit» tizimi, polikultura, suv havzalarining parazitologik holatini doimiy nazorat qilish, oraliq xoʻjayinlarni yoʻq qilish, baliq parazitlariga qarshi kurashishda monogeniyalardan foydalanish, baliqchi parrandalarni qoʻrqitish, kimyoterapiya tadbirlarining mohiyati boʻyicha chet el va resublikamiz olimlari ishlarining natijalari bayon qilingan.

Disertatsiyaning **«Tadqiqot olib borilgan hududning tabiiy-geografik sharoitlari, tadqiqot materiallari va uslublari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar oʻtkazilgan joyning tabiiy sharoitlari tavsifi oʻrganilgan va tadqiqot obʼyekti hamda uslublari haqidagi maʼlumotlar yoritilgan.

Tadqiqotlar olib boriladigan hududlarning tabiati, tuprogʻi va iqlim sharoitlari tavsiflangan.

Tadqiqot ishlari 2020-2022-yillar davomida Samarqand viloyatining turli tipdagi sunʼiy suv havzalarida, xususan, Narpay tumanidagi «Qorakoʻl halol baliqlari», «Zarafshon Karpi» va «Narpay Samariddin fayz», Oqdaryo tumanidan «Ozodbek Ibragimov» va Kattaqoʻrgʻon tumanidagi «Otabek Doʻstov» baliqchilik fermer xoʻjaliklari hamda va Kattaqoʻrgʻon suv omborining shimoliy-gʻarbiy qismining 14-havzasida boqilayotgan karpsimonlar oilasiga mansub sestodalar bilan zararlangan baliqlarda olib borildi. Tajribalarning laboratoriya ishlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining «Zooparazitologiya» va «OPTATECH» kafedralararo laboratoriyalarida olib borildi hamda Oʻzbekiston respublikasi fanlar akademiyasi Zoologiya instituti imkoniyatlaridan ham foydalanilgan.

Laboratoriya sharoitida umumiy qabul qilingan gidrokimyoviy usullardan foydalanilib suv sifati (shoʻrlanish, harorat, kislorod)ni aniqlashda YS asbobidan, suvning ionlar tarkibi (Na^+ , K^+ , Ca^{2+} , Mg^{2+} , Cl^- , SO_4^{2-}), undagi biogen elementlar (N^2 va P birikmalari) va pH-koʻrsatkichini aniqlashda gidrokimyoviy usuldan,

suvdagi pestitsidlar tarkibini aniqlashda Semenov usulidan, fitoplankton, zooplankton va bentoslarni o'rganishda Jeddi setkasi va cho'lpilardan foydalanishga asoslagan gidrobiologik usullardan, baliqlarni tekshirishda esa ixtiologik (Pirojnikov P.L., 1953 va Pravdin.I.F., 1966) usullardan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning «**Samarqand viloyati suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar sestodalarining taksonomiyasi va tur tarkibi**» deb nomlangan uchinchi bobida Samarqand viloyati Zarafshon daryosi o'rta oqimidagi suv omborlari va baliqchilik xo'jaliklarida yashovchi karpsimon baliqlar sestodalarining taksonomiyasi, tur takibi, kasallik qo'zg'atuvchilarining morfologiyasi va tarqalishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Samarqand viloyati suv havzalari sharoitida karpsimon (Cyprinidae) baliqlar oilasi vakillarida Sestoda (Rudolphi, 1808) sinfiga mansub 4 ta turkum, 5 ta oila va 7 ta avlodga kiruvchi jami 9 turi (*Caryophyllaeus laticeps* (Pallas, 1781), *Caryophyllaeus fimbriceps* (Annenkova-Chlopina, 1919), *Bathybothrium rectangulum* (Bloch, 1782), *Ligula intestinalis* (Linnaeus, 1758), *Ligula colymbi* (Zeder, 1803), *Silurotaenia siluri* (Batsch, 1786), *Neogryporhynchus cheilancristrotus* Wedl, 1855, *Gryporhynchus pusillus* (Nordmann, 1832) va *Dilepis unilateralis* (Rudolphi, 1819)lar parazitlik qilishi qayd qilindi. Har bir turning xo'jayini, lokalizatsiyasi, topilgan joyi, lichinkalik davridan jinsiy yetilgan davrigacha bo'lgan rivojlanish sikliga baho berilgan, invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligini aniqlash natijalari ochib berilgan. Shunisi e'tiborga molikki, sazan va kumush tovon turidagi baliqlarida *Silurotaenia siluri* (Batsch, 1786) turi uchun yangi xo'jayin sifatida ilk bor aniqlangan.

Samarqand viloyatining sun'iy suv havzalari sharoitida o'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, suvdagi O₂ miqdori 0,1-0,5 sm³/l atrofida bo'lganda (nazorat guruhida) baliqning suvsiz muhitga chidamliligi 30 kun davomida 50% (40% dan 20% gacha)ga, go'sht chiqimi 9% (90%-81% gacha) pasaygan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 0,6-1,0 sm³/l atrofida bo'lganda (tajriba guruhida) baliqning suvsiz muhitga chidamliligi ushbu muddat davomida 20% (30% dan 50% gacha)ga oshgan, go'sht chiqimi esa nazoratga nisbatan 4% (9%-5%)ga yuqori bo'lgan.

Suv havzalaridagi H₂S miqdori 10-15 sm³/l atrofida bo'lganda (nazorat guruhida) baliqning suvsiz muhitga chidamliligi 30 kun davomida o'zgarmagani hoida (40% - 40%), go'sht chiqimining 6% (91%-85% gacha) pasayishi, ushbu ko'rsatkich 16-20 sm³/l atrofida bo'lganda (tajriba guruhida) baliqning suvsiz muhitga chidamliligi ushbu muddat davomida 66,6% (30% dan 10% gacha) pasayishi, go'sht chiqimining esa nazoratga nisbatan 8% (6%-14%)ga past bo'lishi kuzatilgan.

Shuningdek, baliqlarning oziqasiga qo'shimcha ravishda planktonlarga kambag'al va qo'shimcha hayvonot olami qoldiqlari berilmagan sharoitda (nazorat guruhida) baliqning suvsiz muhitga chidamliligi 30 kun davomida 33,3% (30% dan 20% gacha) ga, go'sht chiqimining 15% (90% dan 75% gacha) pasayishi, planktonlarga boy va qo'shimcha hayvonot olami qoldiqlari berilganda (tajriba guruhida) baliqning suvsiz muhitga chidamliligi ushbu muddat davomida 20% (30% dan 50% gacha) oshishi, go'sht chiqimining esa nazoratga nisbatan 13% (15%-2%)ga baland bo'lishi ko'rastib berilgan.

Dissertatsiyaning «Samarqand viloyati suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar gelmintofaunasi va ayirim biologik xususiyatlari» deb nomlangan to'rtinchi bobida Samarqand viloyati tabiiy va sun'iy suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlarida uchraydigan gelmintlar faunasi, dominant turlari, ularning shakillanishiga gidrologik rejmlarning ta'siri, zararlanish intensivligi, epizootik ahamiyati, ularning tarqalishiga ekologik omillarning ta'siri va ularga qarshi kurashishda ayirim bioekologik usullarni qo'llash samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Samarqand viloyati sun'iy suv havzalaridagi karpsimon baliqlarda parazitlik qiluvchi Sestoda sinfiga mansub 9 tur parazitdan 3 turi (*Ligula intestinalis* Linnaeus, 1758, *Ligula colymbi* Zeder, 1803, *Dilepis unilateralis* Rudolphi, 1819) dominant ekanligi, ya'ni ularning viloyat bo'yicha shartli ravishda bo'lingan uchala hududda xam uchrashi, ushbu dominant turlardan 2 tasi bilan baliqlar ularning lichinkalik bosqichida ham zararlanishi, ular uchun karpsimon baliqlar ikkinchi yoki qo'shimcha xo'jayin vazifasini bajarishi aniqlangan (1-jadval).


1-jadval

**Samarqand viloyati suv havzalaridagi karpsimon baliqlar
sestodalarining tur tarkibi**

№	Gelmint turi	Xo'jayin turlari	Suv havzalari		
			Kattaqo'rg'on suv omborining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan 14-havza	Kattaqo'rg'on tumani Zarafshon daryosining o'rta oqimidagi "Otabek Do'stov" baliqchilik fermer xo'jaligi	Oqdaryo tumani "Ozodbek Ibragimov" baliqchilik fermer xo'jaligi
1.	<i>Caryophyllaeus laticeps</i> (Pallas, 1781)	zog'ora baliq, oddiy qizil ko'z, oqcha baliq,	+	+	-
2.	<i>Caryophyllaeus fimbriceps</i> (Annenkova-Chlopina, 1919)	zog'ora baliq, karp va ba'zan oqcha baliq	+	-	-
3.	<i>Bathybothrium rectangulum</i> (Bloch, 1782)	qora baliq, yalong'och osman balig'i	+	-	-
4.	<i>Ligula intestinalis</i> (Linnaeus, 1758)	qizil qanotli baliq, oddiy qizil ko'z, kumush tovon baliq, qora baliq, do'ngpeshona baliq, oq amur, qirraqorin, Orol	+	+	+

		oqchasi			
5.	<i>Ligula colymbi</i> (Zeder, 1803)	Zarafshon yelets, turkiston qumbalig'i, shemaya (shu yilgilari))	+	+	+
6.	<i>Silurotaenia siluri</i> (Batsch, 1786)	sazan, oddiy qizil ko'z	-	-	+
7.	<i>Neogryporhynchus cheilancristrotus</i> (Wedl, 1855)	oddiy qizil ko'z, oqqayroq, zog'ora baliq, qizil qanotli baliq, sharq oqchasi, oq ko'zli baliq	-	+	-
8.	<i>Gryporhynchus pusillus</i> (Nordmann, 1832)	kumush tovon baliq, zog'ora baliq, oddiy qizil ko'z, oqqayroq, Sharq oqchasi, qizil qanotli baliq, oq amur	-	-	-
9.	<i>Dilepis unilateralis</i> (Rudolphi, 1819)	oddiy qizil ko'z, qizil qanot baliq, oqqayroq, kumush tovon baliq, zog'ora baliq, oq do'ngpeshona baliq	+	+	+
Jami:			6	5	4

I hududda, ya'ni Kattaqo'rg'on suv omborining shimoli-g'arbiy qismidagi 14-havzasida karpsimon baliqlar sestoda faunasi (*Caryophyllaeus laticeps* Pallas, 1781), *Caryophyllaeus fimbriceps* (Annenkova-Chlopina, 1919), *Bathybothrium rectangulum* (Bloch, 1782), *Ligula intestinalis* (Linnaeus, 1758), *Ligula colymbi* (Zeder, 1803) va *Dilepis unilateralis* (Rudolphi, 1819) kabi turlardan iborat ekanligi aniqlandi. Ushbu hududda sestodalarning rivojlanishi uchun qulay sharoit mavjud bo'lib, ular orasida *Dilepis unilateralis* (Rudolphi, 1819) ning baliqlarni zararlash darajasining yuqori (22,8%) ekanligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Kattaqo'rg'on suv omborining 14-havzasi (I hudud) dagi karpsimon baliqlarining sestodalar bilan zararlanishi

II hududda, ya'ni Kattaqo'rg'on tumani Zarafshon daryosining o'rta oqimidagi «Otabek Do'stov» baliqchilik fermer xo'jaligidagi karpsimon baliqlar sestodalar faunasi *Caryophyllaeus laticeps* (Pallas, 1781), *Ligula intestinalis* (Linnaeus, 1758), *Ligula colymbi* (Zeder, 1803), *Neogryporhynchus cheilancristrotus* (Wedl, 1855) va *Dilepis unilateralis* (Rudolphi, 1819) kabi turlardan iborat ekanligi aniqlandi. Xo'jalikda karpsimon baliqlarining sestodalari vakillaridan *Caryophyllaeus laticeps* (Pallas, 1781) va *Ligula intestinalis* (Linnaeus, 1758) dominantlik qildi va eng yuqori zararlanish (29,3%) darajasi *Ligula intestinalis* (Linnaeus, 1758) turiga, eng kam zararlanish (9,3%) darajasi esa *Caryophyllaeus laticeps* (Pallas, 1781) turiga to'g'ri keldi (2-jadval).

2-jadval

Kattaqo'rg'on tumani Zarafshon daryosining o'rta oqimidagi «Otabek Do'stov» baliqchilik fermer xo'jaligi (II hudud) dagi karpsimon baliqlarning sestodalar bilan zararlanishi

№	Sestoda turi	Baliq turi	ZBS	IE, %	II, nusxa	MI, nusxa
1	<i>Caryophyllaeus laticeps</i> (Pallas, 1781)	zog'ora baliq, oddiy qizil ko'z, oqcha baliq	53	9,2	2-14	7,7±0,5
2	<i>Ligula intestinalis</i> (Linnaeus, 1758)	qizil qanotli baliq, oddiy qizil ko'z, kumush	168	29,3	2-21	8,5±0,3

		tovon baliq, qora baliq, do'ngpeshona baliq, oq amur, qirraqorin, Orol oqchasi				
3	<i>Ligula colymbi</i> (Zeder, 1803)	qizil qanotli baliq, oddiy qizil ko'z, kumush tovon baliq, qora baliq, do'ngpeshona baliq, oq amur, qirraqorin, Orol oqchasi	122	21,3	1-8	4,9±0,2
4	<i>Neogryporhynchus cheilancristrotus</i> (Wedl, 1855)	oddiy qizil ko'z, oqqayroq, zog'ora baliq, qizil qanotli baliq, sharq oqchasi, oq ko'zli baliq	102	17,8	1-10	5,4±0,3
5	<i>Dilepis unilateralis</i> (Rudolphi, 1819)	oddiy qizil ko'z, qizil qanot baliq, oqqayroq, kumush tovon baliq, zog'ora baliq, oq do'ngpeshona baliq	128	22,3	2-11	6,9±0,2
	Jami:		573	99,9	1-20	6,7±0,3

III hududda, ya'ni Oqdaryo tumanidagi «Ozodbek Ibragimov baliqlari» baliqchilik fermer xo'jaligida karpsimon baliqlar sestodalar faunasi *Dilepis unilateralis* (Rudolphi, 1819), *Ligula intestinalis* (Linnaeus, 1758), (*Ligula colymbi* Zeder, 1803) va *Silurotaenia siluri* (Batsch, 1786) kabi turlardan iborat bo'lib, qayd etilgan ushbu 4 tur sestodadan *Dilepis unilateralis* (Rudolphi, 1819) bilan baliqlarning zararlanish darajasi ancha yuqori (41,9%) ekanligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

**Oqdaryo tumanida joylashgan “Ozodbek Ibragimov baliqlari”
baliqchilik fermer xo'jaligida karpsimon baliqlarning sestodalar bilan
zararlanishi**

№	Sestoda turi	Baliq turi	Zararlangan baliqlar soni	IE, %	II, nusxa	MI, nusxa
1	<i>Ligula intestinalis</i> Linnaeus, 1758 larvae	qizil qanotli baliq, oddiy qizil ko'z, kumush tovon baliq, qora baliq, do'ngpeshona baliq, oq amur, qirraqorin, Orol oqchasi baliq'i	96	24,9	2-8	4,8±0,2

2	<i>Ligula colymbi</i> Zeder , 1803	Zarafshon elesi, turkiston qumbalig'i, shemaya (shu yilgilari),	88	22,7	3-25	14,6±0,7
3	<i>Silurotaenia</i> <i>siluri</i> (Batsch , 1786)	sazan, oddiy qizil ko'z	40	10,4	3-26	14,1±1,1
4	<i>Dilepis</i> <i>unilateralis</i> Rudolphi, 1819 larvaye	oddiy qizil ko'z, qizil qanot baliq, oqqayroq, kumush tovon baliq, zog'ora baliq, oq do'ngpeshona baliq	162	41,9	1-14	7,2±0,3
Jami			386	100	1-14	

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, sestodalarining *Dilepis unilateralis* (Rudolphi, 1819) *Ligula colymbi* (Zeder, 1803) va *Ligula intestinalis* (Linnaeus, 1758) turlari barcha hududlarda uchrashi va daminantlik qilishi, *Gryporhynchus pusillus* (Nordmann, 1832) sestodasining esa, aksincha, tajribalar olib borilgan uchta hududda ham uchramaganligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida karpsimon baliqlar sestodalarining tarqalishiga ekologik omillarning ta'sirini o'rganishga qaratilgan tajribalarda zog'ora balig'i oilasiga mansub 4 ta turining sestodalar bilan zararlanish darajasi tahlil qilindi:

Cyprinus carpio (Linnaeus, 1758) zog'ora balig'ining zararlanish IE-gi o'rtacha 5,6-38,1% (eng kam zararlanish *Silurotaenia siluri*, eng yuqori zararlanish *Bothriocephalus opsariichthydis*), II-gi 1-23 (eng past zararlanish *Proteocephalus osculatus*, eng yuqori zararlanish *Bothriocephalus opsariichthydis*) ni; *Carassius gibelio* zog'ora balig'ining zararlanish IE-gi o'rtacha 4,1-44,3% (eng kam zararlanish *Bothriocephalus opsariichthydis*, eng yuqori zararlanish *Triaenophorus nodulosus*), II-gi 1-14 (eng past zararlanish *Silurotaenia siluri*, eng yuqori zararlanish *Triaenophorus nodulosus*) ni; Oddiy qizil ko'z va zog'ora balig'ining zararlanish IE-gi o'rtacha 31,3-66,7% (eng kam zararlanish *Bothriocephalus opsariichthydis*, eng yuqori zararlanish *Gryporhynchus Pusillus*), II-gi 1-10 (eng past zararlanish *Gryporhynchus pusillus*, eng yuqori zararlanish *Proteocephalus osculatus*) ni; *Hypophthalmich thysnobilis* (chipor do'ngpeshona) zog'ora balig'ining zararlanish IE-gi o'rtacha 28-42,1% (eng kam zararlanish *Gryporhynchus pusillus*, eng yuqori zararlanish *Proteocephalus osculatus*), II-gi 1-12 (eng past zararlanish *Triaenophorus nodulosus*, eng yuqori zararlanish *Silurotaenia siluri*) ni tashkil etishi aniqlandi.

Umuman olganda, Zog'ora balig'ining 4 ta vakilining sestodalar bilan zararlanishi bo'yicha eng yuqori invaziya ekstensivligi (31,3-66,7%) oddiy qizil ko'z balig'ida (4-jadval), eng past invaziya ekstensivligi (5,6-38,1%) *Cyprinus carpio* (Linnaeus, 1758) balig'ida, shuningdek, eng yuqori invaziya intensivligi (1-

23) *Cyprinus carpio* (Linnaeus, 1758) baliq'ida, eng past invaziya intensivligi (1-10) oddiy qizil ko'z baliq'da qayd etildi.

4-jadval

Samarqand sun'iy suv havzalarida oddiy qizil ko'z - *Rutilus rutilus* (Linnaeus, 1758) baliq'ining sestodalar bilan zararlanishi

№	Gelmint turi	Lokali- zatsiyasi	Tekshirilgan baliqlar soni	Zararlangan baliq soni	IE, %	II, ekz.		
						min	max	M±m
Sestoda Rudolphi, 1808 sinfi								
1.	<i>Triaenophorus nodulosus</i>	ichak, jigar, ichki organlar	12	-	-	-	-	-
2.	<i>Bothriocephalus opsariichthydis</i>	ichak	16	5	31,3	2	8	3,4±0,5
3.	<i>Proteocephalus osculatus</i>	ichak	20	9	45	2	11	8,9±1,0
4.	<i>Silurotaenia siluri</i>	ichak	29	12	41,4	1	10	7,2±0,8
5.	<i>Neogryporhynchus cheilancristrotus(larvae)</i>	oʻt qopi, ichak	10	4	40	2	5	2,5±0,3
6.	<i>Gryporhynchus pusillus(larvae)</i>	ichak old qismi shilliq qavati	12	8	66,7	1	8	3,3±0,4
7.	<i>Dilepis unilateralis (larvae)</i>	oʻt qopi, ichak	26	13	50	2	8	4,3±0,6
Jami:			125	51	40,8	10	50	

Samarqand viloyatining sun'iy suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar sestodalariga qarshi kurashishda «Polikultura», «Biologik zanjirni uzish» va «Sanitar ekologiya» tadbirlarining samaradorligi ochib berildi (5-jadval).

**Samarqand viloyati suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar
sestodlariga qarshi kurashishda bio-ekologik usullarni qo'llash natijalari**

№	Tajriba joyi va o'rganilgan parazit turi	Qo'llanil-gan bio-ekologik usul	Tajriba natijalari					
			Tajribagacha			Tajribadan keyin		
			Zararlangan baliq soni	IE, %	II, %	Zararlangan baliq soni	IE, %	II, %
1	Kattaqo'rg'on suv omborining 14-havzasi <i>Dilepis unilateralis</i> , R. 1819	«Polikultura»	206	22,8	2-31	20 (240)	12,4	1-16
2	Kattaqo'rg'on tumani Zarafshon daryosi o'rta oqimidagi «Otabek Do'stov» f/x., <i>Ligula intestinalis</i> , L. 1758	«Biologik zanjirni uzish»	168	29,3	2-21	23 (115)	20,0	1-11
3	Oqdaryo tumani «Ozodbek Ibragimov baliqlari» f/x., <i>Dilepis unilateralis</i> , R. 1819	«Sanitar ekologiya»	162	41,9	1-14	34 (106)	31,0	1-10
4	Oqdaryo tumani «Ozodbek Ibragimov» f/x., <i>Dilepis unilateralis</i> , R. 1819	«Poli-kultura»+ «Biologik zanjirni uzish»+ «Sanitar ekologiya»	162	41,9	1-14	11 (110)	10	1-4

Ishning iqtisodiy samaradorligi. Samaraqand viloyati sun'iy suv havzalari sharoitlaridagi karpsimon baliqlarning sestodozlariga qarshi o'tkazilgan tadbirlarda

har 1 tonna baliq hisobiga bir yilda o'rtacha 3433100 so'mdan iqtisodiy samara olish imkonini berdi va bunda xarajatlar qoplami 5,5-7,0 so'mni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning «**Karpsimon baliqlar asosiy sestodozlari profilaktikasining ilmiy asoslari**» deb nomlangan beshinchi bobida baliqlar parazitar kasalliklari to'g'risida umumiy ma'lumot va ularning oldini olish uslublari, jumladan karpsimonlar kasalliklari orasida sestodozlar asosiy o'rinni egallaydi va turli xil sharoitlarda o'stiriluvchi (saqlanuvchi) xamma tur va barcha yoshdagi baliqlarda uchrashi antigelmintik preparatlarni qo'llash samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Sestodozlarga qarshi preparatlarni tanlashda shuni nazarda tutish kerakki, ular uchun umumiy talablar quyidagilar hisoblanadi: organizm uchun zararsizligi, yuqori samaradorligi, keng ta'sir doirasiga egaligi, ekologik xavfsizligi, hammabopligi, qo'llanilishining oddiyligi, dozaning miyori va iqtisodiy asoslangan sotish bahosi. Preparatlardan foydalanish laboratoriya va klinik tadqiqotlar ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsa, ularni qo'llash samarali bo'lishi mumkin. Keyingi o'rinda preparatlarning baliq parazitlarga qarshi qo'llanilgandagi samaradorligi aniqlanadi (6-jadval).

6-jadval

Baliq sestodozlariga qarshi sinovdan o'tkazilgan angelmintik preparatlarning samaradorligi

№	Qo'llanilgan preparatlar	Tekshirilgan baliqlar dona soni (dona)	Tekshirish usuli natijalari				Preparatlarning samaradorligi
			Gelmintsizlantirishdan oldin		Gelmintsizlantirishdan 14 kun o'tgach		IE. nisbati (%)
			IE. (%)	II (nusxa)	IE (%)	II. (nusxa)	
1	Albendazol suspenziyasi, 10 %, 0,10 g/kg	100	22	2	22	2	0
2	Albendazol suspenziyasi, 10 %, 0,20 g/kg	100	22	2	5	1	77,3
3	Panofenb, 22%, 0,2 g/kg	100	23	3	14	1	39,1
4	Panofenb, 22%, 0,4 g/kg	100	23	3	0	0	100
5	Metsalbin, 10%, 0,10 g/kg	100	18	2	16	1	11,1

6	Metsalbin, 10%, 0,20 g/kg	100	18	2	4	1	77,8
7	Benzimidazol suspensiyasi, 0,10 ml/kg	100	24	3	18	1,5	25,0
8	Benzimidazol suspensiyasi, 0,20 ml/kg	100	24	3	0	0	100
9	Prazikvantiy,el, 0,2 g/kg	100	22	2	19	1	13,6
10	Prazikvantiy,el, 0,4 g/kg	100	22	2	0	0	100
Nazorat		100	21	2	22	3	-

Olib borilgan tajribalardan olingan natijalarda benzimidazol preparati samaradorligi yuqoriligicha baliq sestodozlarini profilaktika qilishda asosiy o‘rinni egallaganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari baliqlar organizmida larvae holatda uchraydigan sestodozlariga qarshi qo‘llanilgan suspensiyali shaklidagi benzimidazol preparati 100 % antigelmintik samaradorlikka ega ekanligi tajribalarda isbotlandi. Baliq sestodozlarini oldini olishda qo‘llanilgan benzimidazoli suspensiyasini berish baliq go‘sht maxsulotlarini sifati ularni o‘sish rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi aniqlandi (7-jadval).

7-jadval

Profilaktika maqsadida qo‘llanilgan vositalar

t/r	Qo‘llanilgan vositalar	Olingan natija
1	Xlorli ohak gektariga 75 kg	Oraliq xo‘jayin qisqichbaqasimonlarga 80 % gacha ta‘sir etdi
	Nazorat	O‘zgarishlar kuzatilmadi
2	So‘ndirilgan oxak 95 kg/ga, mis kuporosi 6 kg/ga, kalsiy gipoxlorid 5 kg/ga	Oraliq xo‘jayin qisqichbaqasimonlar to‘liq bartaraf etildi
	Nazorat	O‘zgarishlar kuzatilmadi
3	Metelin ko‘ki 210 g/ga, natriy ishqori 90 kg/ga	Oraliq xo‘jayin qisqichbaqasimonlarga 72 % gacha ta‘sir etdi
	Nazorat	O‘zgarishlar kuzatilmadi

Xulosa qilib aytganda Samarqand viloyatining sun‘iy suv havzalarida karpsimon baliqlarning sestodozlaridan (*Ligula*, *Digamma*, *Bothriocephalus* va *Khawia*) avlodining har xil turlari uchrashi aniqlandi.

Karpsimonlar oilasiga mansub har xil turdagi baliqlar to‘liq gelmintologik yorib tekshirilganda kumush tovon baliq baliqlarda ligulidlar bilan zararlanish eng yuqori bo‘lib, sun‘iy suv havzasida IE 13,3 %, II 2-6 nusxa, Kattaqo‘rg‘on suv omborida esa IE 60,4%, II 3-15 nusxani tashkil etdi.

XULOSALAR

“Samarqand viloyati sun’iy suv havzalarida karpsimon baliqlar sestodalarining biologiyasi, tarqalishi va ularga ekologik omillarning ta’siri” mavzusidagi biologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Samarqand viloyatining Kattaqo’rg’on tumani suv omborining Shimoliy-sharqiy qismida joylashgan suv havzalaridagi karpsimon baliqlardan zog’ara baliq, oddiy qizilko’z, karp, qizil qanotli baliq, oq do’ngpeshona, oq amur va kumush tavon baliqlari organizmida *Caryophyllaeus laticeps*, *Caryophyllaeus fimbriceps*, *Bathybothrium rectangulum*, *Ligula intestinalis*, *Ligula colymbi*, *Dilepis unilateralis* larvae sestodlari uchrashi qayd etildi.

2. Zarafshon daryosining o’rta oqimida joylashgan “Otabek Do’stov” va Oqdaryo tumanida joylashgan “Ozodbek Ibragimov baliqlari” baliqchilik fermer xo’jaliklaridagi karpsimon baliqlarda *Caryophyllaeus laticeps*, *Ligula intestinalis*, *Ligula colymbi*, *Neogryporhynchus cheilancristrotus*, *Silurotaenia suluri* va *Dilepis unilateralis* sestodlar bilan zararlanish miqdori aniqlandi.

3. Tajriba olib borilgan Samarqand viloyatining barcha hududlardagi sun’iy suv havzalaridagi karpsimon baliqlarda *Dilepis unilateralis*, *Ligula colymbi* va *Ligula intestinalis* sestodalari ustunlik qilishi va *Cruporhynchus pusillus* sestodasi ushbu hududlarda uchramasligi aniqlandi.

4. Zarafshon daryosi o’rta oqimi hamda hovuz xo’jaliklaridagi Cyprinidae oilasiga mansub karpsimon baliqlarda sestoda sinfining 4 turkum, 5 oila va 7 avlodiga mansub *Caryophyllaeus laticeps*, Pallas, 1781; *Caryophyllaeus fimbriceps*, Annencora chlopina, 1919; *Bathybothrium rectangulum*, Bloch, 1782; *Ligula intestinalis*, Linnaeus, 1758, larvae; *Ligula colymbi*, Zeder 1803; *Silurotaenia suluri*, Batch 1786; *Neogryporhynchus cheilancristrotus*, Wedi, 1955 larvae; *Cruporhynchus pusillus*, Nordmann, 1832 larvae va *Dilepis unilateralis* Rudolphi, 1819 larvae lardan iborat 9 tur gelminlar parazitlik qilishi kuzatildi.

5. Kattaqo’rg’on suv omborining shimoliy - sharqiy qismida joylashgan 14-havzasidagi karpsimon baliqlarining *Caryophyllaeus laticeps*, *Ligula intestinalis* va *Dilepis unilateralis* sestodalarining invaziya ekstensivligi 9,4 % dan 22,8 % gachani, invaziya intensivligi 1-42 nusxani tashkil etishi aniqlandi.

6. Zarafshon daryosining o’rta oqimida joylashgan “Otabek Do’stov” baliqchilik fermer xo’jaligi sharoitidagi karpsimon baliqlarning *Caryophyllaeus laticeps*, *Ligula intestinalis*, *Ligula colymbi*, *Neogryporhynchus cheilancristrotus* va *Dilepis unilateralis* sestodalari bilan zararlanish invaziya ekstensivligi 9,2 % dan 22,3 % ni va invaziya intensivligi 1-21 nusxani tashkil etishi kuzatildi.

7. Tadqiqot olib borilgan karp baliqlar sestodalari faunasida 2 ta, ya’ni *Ligula intestinalis* va *Dilepis unilateralis* turlari qat’iy epizootik ahamiyatga ega bo’lgan turlar hisoblanadi va ular noadekvat ekologik sharoitlarda kasallikning keng tarqalishiga olib keladi.

8. Karpsimon baliqlar sestodalarining tarqalishiga ekologik omillar kuchli ta’sir ko’rsatadi, xususan, karpsimon baliqlarning 4 vakilida sestodalar bilan zararlanish bo’yicha eng yuqori invaziya ekstensivligi (31,3-66,7%) oddiy qizil

ko'z baliqda, eng past invaziya ekstensivligi (4,1-21,4%) zog'ara balig'ida, shuningdek, eng yuqori invaziya intensivligi ham aynan shu tur baliqda kuzatildi (1-13). Chipor do'ngpeshona balig'ida esa eng past invaziya intensivligi (1-4) ekanligi qayd etildi.

9. Samarqand viloyatining sun'iy suv havzalari sharoitida o'tkazilgan tajriba natijalarida suvdagi O₂ miqdori 0,6-1,0 sm³/l atrofida bo'lganda tajriba guruhida baliqning suvsiz muhitga chidamliligi ushbu muddat davomida 20%, 30% va 50% miqdorgacha oshishi, go'sht chiqimi esa nazoratga nisbatan 4% dan 9% miqdorda yuqori bo'lganligi aniqlandi.

10. Sun'iy suv havzalari sharoitidagi karpsimon baliqlar sestodlariga qarshi kurashishda «Polikultura», «Biologik zanjirni uzish» va «Sanitar ekologiya» usullarini alohida-alohida holda qo'llash karpsimon baliqlarning *Dilepis unilateralis* Rudolphi, 1819 larvae va *Ligula intestinalis* Linnaeus, 1758 larvae parazitlari bilan zararlanishida invaziya ekstensivligining 29,3-20,0 % gacha, har uchala usulni ham birgalikda qo'llash natijasida esa bu ko'rsatkichning 41,9 % va 10 % miqdorda, invaziya intensivligining 2-21 dan 1-10 gacha va uchala usul birgalikda qo'llaganilganda 1-14 va 1-4 gacha (77% ga) pasayishi kuzatiladi.

11. Karpsimon baliqlar sestodalarini oldini olish uchun o'tkazilgan tajribalarda qo'llanilgan antigelmintik preparatlardan bulaben 10 % li antigelminti qo'llanilganda zararlanmay qolgan baliqlarga zond orqali preparat yuborilganda IE-100 % xuddi shuningdek Albindazzol granulasi 20% li 0,10 mg/kg miqdorda zond orqali qo'llanilganda ham IE-100 % natijalar olindi

12. Karpsimon baliqlar sestodozlariga qarshi o'tkazilgan eko-biologik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi o'rtacha 900.000-3600.000 so'mni, harajatlar qoplami esa, 3-12 so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.20.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

МАХАММАДИЕВ ЗОХИД НАСРИЛЛАЕВИЧ

**БИОЛОГИЯ, РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ
ФАКТОРОВ НА ЦЕСТОД КАРПООБРАЗНЫХ РЫБ В
ИСКУССТВЕННЫХ ВОДОЁМАХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ**

03.00.06 - Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/B822.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet». (<http://www.ziyonet.uz>).

Научный руководитель:

Даминов Асадулло Суванович
доктор ветеринарных наук, профессор

Официальные оппоненты:

Акрамова Фируза Джалаладиновна
доктор биологических наук, профессор

Кошанов Даулетбай Ережепович
доктор философии (PhD) по биологическим наукам

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «20» июня 2023 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.20.04 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Зал заседаний Каракалпакского государственного университета. Тел.: (+99861) 223-60-78, факс (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертации можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за №139). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-60-78, факс (+99861) 223-60-78.

Автореферат диссертации разослан «05» июня 2023 года.
(реестр протокола рассылки № 3 от «05» июня 2023 года)



М.А.Жуманов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.б.н., профессор

М.К.Бегжанов
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.б.н.,
доцент

Я.И.Аметов
Председатель Научного
семинара при Научном совете
по присуждению ученых
степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мировых масштабах производство и поставка рыбной продукции населению является одним из важнейших приоритетных задач рыбного хозяйства. В этой связи, нарастающее негативное влияние гельминтозных заболеваний, вызываемых паразитическими червями, на выращиваемую продукцию свидетельствует о необходимости дальнейшего совершенствования системы борьбы с ними. Особенно, вызываемые цистодами болезни, являются одним из главных препятствий для производства рыб в условиях естественных и искусственных водоемов, в частности, карповых рыб, а также акклиматизации видов рыб. Поэтому, определение видового состава цестод, паразитирующих в организме карповых рыб, оценка негативного влияния гельминтозных заболеваний, вызываемых паразитическими червями, на развитие и продуктивность рыбной отрасли и разработка мероприятий по борьбе с ними имеет важное научно-практическое значение.

